ACHILLEA MILLEFOLIUM FIZIOLOGIK, MORFOLOGIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Kenjayev J.G'.
"Zarmed" Universiteti O'qituvchisi
Shodiyev B.X.
"Zarmed" Universiteti O'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.12179376

Abstract: Achillea millefolium plant species, distribution, medical importance, role in modern medicine, chemical composition, organic and inorganic substances, medicinal properties, physiological and morphological changes are covered.
Key words: Achillea millefolium, carotene, extract, flavanoids, antioxidant, gastritis, fenugreek, camphor, borneol, caryophyllene, cineol, formic, acetic and valerian acids.
Annotatsiya: Achillea millefolium o`simligining o`suvchi turlari, tarqalishi, tabobatdagi ahamiyati, zamonaviy tibbiyotdagi o`rni, kimyoviy tarkibi, tarkibidagi organik va noorganik moddalar hamda dorivorlik xususiyatlari,fiziologik va morfologik o'zgarishlari yoritilgan.
Kalit so`zlar: Achillea millefolium, karotin, ekstrakt, flavanoidlar, antioksidant, gastrit, tuyon, kamfora, borneol, karioffillen, sineol, chumoli, sirka va valerian kislotalar.

Bo'yimadaron (Achillea millefolium L.) — qoqidoshlar oilasining dastarbosh turkumiga mansub patsimon bargli ko'p yillik o't. Ildiz bo'g'zidan bo'g'iz barglari va poyalar o'sib chiqadi. Poyasi bir nechta, yuqori qismi shoxlangan bo'lib, qalqonsimon to'pgullar bilan tugallangan. Iyunda gullay boshlaydi; mevasi mayda, yassi pistacha, avgustda yetiladi. O'zbekistonda B. turkumining 5 turi uchraydi. B. adir va qirlar, yo'l yoqalari va o'rmon chekkalarida o'sadi. Tarkibida karotin, K va S vitamin, achchiq moddalar bor. Ekstrakti va damlamasi me'daichak yarasi kasalliklarini davolash, ishtaha ochish hamda qon to'xtatish uchun ishlatiladi.
Shimoliy yarimsharda115dan ortiq, dunyoda110-140 turi mavjud.Balandligi 0,2-1 m va bir tekisda o'sadigan ko'p yillik o'simlik.Butun dunyoda keng tarqalgan Asteraceae oilasi Amerika,janubiy va sharqiy Afrika,O'rta yer dengizi, Osiyo va Avstraliyada o'sadi. Bu subtropik mintaqalarning qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil mintaqalarida, past va o'rta haroratli mintaqalarda, mesiktog'li muhitda va okeanik iqlimda o'sishi mumkin bo'lgan juda boy tur xilma-xilligiga ega oila. Asteraceae oilasi Orchidaceae oilasidan keyin 1623 avlod va taxminan 24.700 tur, shu jumladan uchta kenja oilaga ega bo'lgan ikkinchi eng katta tomirli o'simliklar oilasidir.
Barglari poyasibo'ylab bir tekisda ketma-ket taqsimlanib ikki karra patsimon tuzilgan bo'lib, uzunligi 5-20 sm deyarli tukli va tarkibida kaulin bo'lib,yopishish xususiyatiga ega.Gullari poyaning yuqori qismida katta,ixcham qalqonsimon to'pgulda joylashgan, har bir to'plam 1 yoki undan ortiqgul boshlaridan iborat. Gulpoyada 20-25 sarg'ish-oq (kamdan-kam pushti) nurli gullarga ega.Mevasi yassi, tuxumsimon,kulrang pista meva.Bo'ymadaronning xalq va rasmiy tibbiyotda keng qo'llanilishi o'simlik tarkibidagi turli xil biologik faol moddalar majmuasi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda oddiy bo'ymadaronning kimyoviy tarkibi juda yaxshi o'rganilgan.Bo'ymadaron tarkibida azulen, tujol, sineol, kofur, karyofilin, chumoli, valerik kislota o'z ichiga oladi.
Maysalarida qatronlar, taninlar, fitonsidlar, axilein alkaloidi, akonitik va askorbin kislotalar,K, P, B1 vitaminlari bor. O'simlik tarkibida flavanoidlar mavjud, ular orasida artemetin. Dorivor

xom ashyo tarkibida ko'plab mikro va makro elementlar mavjud:K,Ca,B, Mg,Si, Cl, Co,P.An'anaviy tibbiyot, Evropa, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari bu o'simlikni uzoq vaqt davomida bachadon va ichakdan qon ketish uchun yarani davolash va gemostatik vosita sifatida ishlatgan; dizenteriya, diareya,siydik pufagi, tuxumdonlarning yallig'lanish kasalliklarida foydalaniladi

O`zbekistonda o`suvchi dorivor o`simliklar soni 2000 turdan ziyodni tashkil qilib, ular ichida bo`yimadaron o`simligini aloxida axamiytga ega. Bo'yimadaron (Achillea millefolium ) — qoqio`tdoshlar oilasining dastarbosh turkumiga mansub patsimon bargli ko'p yillik o't. Ildiz bo'g'izdan bo'g'iz barglari va poyalar o'sib chiqadi. Bo'yimadaron ko'p yillik, bo'yi 30-70 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, yuqori qismi shoxlangan bo'lib, qalqonsimon to'pgullar bilan tugallangan. Iyunda gullay boshlaydi; mevasi mayda, yassi pistacha, avgustda yetiladi. O'zbekistonda bo`yimodaron turkumining 5 turi uchraydi. Bo`yimodaron adir va qirlar, yo'l yoqalari va o'rmon chekkalarida o'sadi. Tarkibida karotin, K va S vitamin, achchiq moddalar bor. Ekstrakti va damlamasi me'daichak yarasi kasalliklarini davolash, ishtaha ochish hamda qon to'xtatish uchun ishlatiladi. Bo'yimodaron o'simligi tibbiyotida keng qo'llaniladigan gulli o'simlik bo'lib, o'zining tinchlantiruvchi xususiyatlari bilan mashhur va qadim zamonlardan beri qo'llanilgan [2]. Bu o'tning lotincha nomi qadimgi yunon miflariga va Troya urushi qahramoni Axillesga borib taqaladi, u o'tni sheriklarining jarohatlarini davolash uchun ishlatgan. Kosmetologiyada bo'yimodaron tarkibidagi qimmatbaho yog'li kislotalar va o'simlik qandlari unga ajoyib yumshatuvchi va g'amxo'rlik xususiyatlarini beradi. Bo'yimodaron ekstraktidagi flavonoidlar va taninlarning yuqori miqdori unga mukammal antioksidant va tinchlantiruvchi xususiyatlarni beradi.Kosmetologiyada teriga g'amxo'rlik qilishda va uni tinchlantirishda, ajoyib antioksidant sifatida hamda bo'yimodaron tarkibidagi yog' kislotalari va o'simlik shakarlari unga mukammal yumshatuvchi va terini parvarish qilish xususiyatlarini bergani uchun teri parvarishida ishlatiladi. Oddiy bo'ymodaron (Achillea Millefolium) ning Kimyoviy tarkibida biologik va kimyoviy faol moddalardan karotin, K va C vitaminlari, axillein va betonitsin alkaloidlari, 0,8% gacha efir moyi, matrikarin izomeri, millefin laktoni, 0,31% xolin,asparagin, smola, oshlovchi, achchiq (proxamazulen-axillin) va boshqa moddalar bo'ladi. Efir moyi tarkibida 1-4% gacha xamazulen (asosiy qismi, efir moyini olish vaqtida proxamazulendan hosil bo'ladi), tuyon, kamfora, borneol, karioffillen, 10% gacha sineol, chumoli, sirka va valerian kislotalar bor. O'simlik tarkibida miqdor jihatidan kaliy, kalsiy, mis va magniy nisbatan yuqori hisoblanadi. Inson tanasida mineral elementlarning roli juda xilma-xildir. Ular organlar va to'qimalarning tarkibiy qismlari, hujayra va to'qima suyuqliklarining bir qismi, shuningdek fermentlar, mushaklarning qisqarishining molekulyar mexanizmida, asab impulslarining uzatilishida qatnashadi. Bo'yimadarondan tayyorlangan mahsulotlarning dorivor preparatlari me'da ichak(me'da yarasi va gastrit hamda shilliq qavatining yallig'lanishi) kasalliklarini davolash, ishtaha ochish va qon to'xtatuvchi dori sifatida (ichakdan, bachadondan va gemmoroidal qon oqishi) hamda burun, milk va yaralar qonaganda uni to'xtatish uchun ishlatiladi. Ibn Sino bo'ymodaron yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmani shamollaganda, bosh og'rig'ida, bachadon yarasida, buyrak tosh va boshqa kasalliklarda tavsiya qilgan. Xalq tabobatida o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma turli qon oqishlarda (qon tupurish, qon aralash ich ketish, bavosil kasalliklarida) qon to'xtatuvchi hamda ishtaha ochuvchi dori sifatida ishlatiladi. Bu dorilardan yana bosh og'rig'ini qoldiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida

hamda o'pka sili va meda- ichak kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Bo'ymodaron gulining kukuni asalga qorib yeyilsa, gijjalar tushadi.[4] Tibbiyotda bo'ymodaron o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakt me'da-ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaha ochuvchi, qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi.Bo'ymodaron o'simligini o'stirish texnoligiyasi ham juda oddiy uni mamlakatimizning barcha sug'oriladigan tuproqlarida (sho'r yerlardan tashqari) ekib o'stirish mumkin. Ayniqsa sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda ekilsa yaxshi o'sadi va rivojlanadi. Undan mo'l hosil yig'ib olish mumkin bo'ladi. Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yovvoyi holda o'sadigan bo'ymodaron o'simligiga nisbatan, ekib o'stiriladiganlari tarkibida biologik faol moddalar ko'proq to'planadi va xomashyosini vaqtida yig'ib olinadi. Undan tashqari ularning ayrim noyob, kamayib ketayotgan turlarini ko'paytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bo'yimodaron ekiladigan yerlarni kuzda organik va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirib, 25-27 sm chuqurlikda traktor bilan haydab qo'yiladi. Bo'modaron ko'p yillik o'simlik bo'lgani uchun uni kech kuzda va erta bahorda ham ekish mumkin.O'simlikni urug'idan va vegetativ yo'l bilan ham ko'paytiriladi. Ekish davrida eng saralangan urug'lardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak yuqorida sanab o`tilgan shifobaxsh xossalari, zararli va toksinli xossalarining o`ta kam miqdorda namoyon bo`lishini inobatga olib, bo`yimadaron o`simligidan farmatsevtikada va xalq tabobatida qo`llash va shu bilan birga foydali komponentlarini ajratib olishning samarali metodlarini ishlab chiqishni tavsiya etish mumkin.

References:

1. ТАРКИБИДА М. и др. МЕХАНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПОЧВ РОМИТАНСКОГО РАЙОНА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПЛОДОРОДИЕ ПОЧВ //DEVELOPMENT. – Т. 31. – С. 47.
2. Амонова Д. Б., Хамрокулова Н. К. К., Сулаймонов Б. Б. У. Методы независимой и творческой деятельности студентов в обучении биологии //Academy. – 2020. – №. 6 (57). – С. 16-17.
3. Хамрокулова Н. К. К. ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ КОРНЕВЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ БУХАРСКОГО ОАЗИСА //Academy. – 2021. – №. 1 (64). – С. 26-28.
4. Хамроева Н. К. К. Преимущества возможностей "smart education" в обучении биологии //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 50-52.
5. Norboeva U., Xamrokulova N. SOYBEAN-A NATURAL SOURCE OF PROTEIN //E Conference Zone. – 2022. – С. 79-81.
6. Хамрокулова Н., Мустафаева М. И. БИОИНДИКАТОРНОСТЬ-ИЗУЧЕНИЯ СТЕПЕНИ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ВОД ПРИ ПОМОЩИ АЛЬГОФЛОРЫ БИОПРУДОВ //Национальная ассоциация ученых. – 2016. – №. 4-1 (20). – С. 102-103.